



**O‘ZBEK TILI O‘QITUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA FONETIKA
VA LEKSIKOGRAFIYANING O‘RNI**

Qurbanbayev Otabek Xakimbek o‘g‘li

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili
kafedrasi o‘qituvchisi*

Otanazarova Shahzoda Zokir qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar
fakulteti 2-bosqich talabasi*

Davlatboyeva Ozoda Qudrat qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar
fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Nutqiy madaniyat tarbiyasi maktabdagi barcha fanlar bilan uzviy bog‘liq. Ayniqsa o‘zbek tili o‘qituvchisining nutqi har tomonlama mukammal, har bir o‘quvchisiga o‘rnak bo‘la oladigan darajada bo‘lishi shart. Jamiyatda har birimiz o‘z o‘rnimizni topishimizda, kasb-hunar egallashimizda nutq madaniyati muhim quroldir.*

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, nutqiy kommunikatsiya, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning boyligi, fonetika, intonatsiyaning prosodik unsurlari, nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri leksikografiya, sheva, argo, jargonlar, sinonim, antonim, iboralar.*

Butun dunyoda turli-tuman kasb-hunarlar bor. Ular bir-birini takrorlamaydi va har birining o‘z ish qurollari bor. Har qaysi kasb egasi o‘z ish qurolidan foydalanish malakasini yaxshi egallagan bo‘lishi, o‘z sohasiga doir bilimlardan boxabar bo‘lishi lozim. Shundagina egallagan kasb-hunari bilan jamiyatga, yurtiga, eng asosiysi o‘ziga ham moddiy ham ma’naviy tarafdin foyda keltirgan bo‘ladi. Masalan, usta doimo arrayu-mix bilan ishlaydi. Ammo uning arrasi doimo o‘tkirlangan bo‘lmasa yog‘ochni kesolmaydi, mixi uchli bo‘lmasa yasagan buyumlari mustahkam bo‘lmaydi. Bunday buyumlardan hech kimga foyda bo‘lmaydi. Jamiyatda esa har birimizning qurolimiz o‘z nutqimiz hisoblanadi.

Hamma kasblarning boshida o‘qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo‘lishidan qat’i nazar o‘qituvchilarning asosiy quroli ularning nutqidir. O‘z ona tilida go‘zal va jozibador, puxta va lo‘nda nutq tuza olish matematika o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birdek zaruriy fazilat hisoblanadi. Ma’lumki yosh avlodni har tomonlama mukammal va o‘qimishli kadr darajasiga yetkazib berish har bir o‘qituvchining zimmasidagi vazifadir. Shunday ekan har bir o‘qituvchi xoh maktabda bo‘lsin xoh oliy ta’lim muassasasida bo‘lsin o‘z zimmasidagi vazifasini to‘laligicha, vijdonan bajarmog‘i darkor. Bu o‘qituvchilardan katta mehnat, jonkuyarlik va o‘z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Jumladan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari ham



katta mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan. Chunki o'quvchilarni o'z ona tilisiga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash, ularga o'zbek tili grammatikasini, jumladan o'qish va yozishni, o'zbek tilida chiroyli so'zlash va gaplar tuzishni boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatish ularning vazifasidir. O'zbek tilida ravon va chiroyli gapirish, bexato yozishni yaxshi o'zlashtirish yosh avlodni kelgusida kasb tanlashlari va muvaffaqiyatlarga erishishlarida juda muhimdir.

Ammo, shunisi ham borki buni aslo chetga surib bo'lmaydi. Agarda o'qituvchi o'zi yetarlicha bilimga ega bo'lmasdan turib o'quvchilarga o'zbek tilida o'qish va yozishni o'rgatsa, yoki o'zining nutqi yaxshi bo'lmasdan sheva elementlaridan ko'p foydalanib dars o'tsa va o'quvchilardan adabiy tilda gapirishni talab qilsa, u holda o'quvchilar ham undan o'rnak olmaydimi? Vaholanki, o'quvchilar o'z o'qituvchilarni eng mukammal inson deb biladi va har doim unga ergashadi, o'qituvchisi to'g'ri deb aytgan ishni qiladi. Shuning uchun ham yosh avlod o'qimishli bo'lishi uchun avvalo o'qituvchilarning o'zlari shu talabga javob berishlari darkor. Buning uchun ularda fonetik bilimlar yetarli tarzda shakllangan bo'lishi shart. Masalan, o'qituvchi biron-bir matnni o'quvchilarga o'qib berayotgan bo'lsa, yoxud og'zaki aytib berayotgan bo'lsayu ovoz tonining balandligi bir xilda davom etsa bu o'quvchilarni charchatadi, qiziqishi susayadi. O'qituvchi har safar shu tarzda davom etaversa, nutqi o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'ladi. Gaplarida mantiq, ma'no-mazmun bo'lmasa bu o'zi uchun ham, o'quvchi uchun ham katta yo'qotish bo'ladi: o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi yo'qqa chiqadi, o'qituvchi esa o'quvchilarining ishonchi va mehrini yo'qotadi. Agar o'qituvchi nutqida kommunikatsion texnologiyalarga to'liq amal qilingan bo'lsa, ya'ni nutqi aniq, to'g'ri, mantiqiy va boy bo'lsa u o'z o'quvchilari va barcha uchun eng hurmatli insonga aylanadi. Chunki jamiyatda birgina nutq madaniyatigina barchaning qadriyu-qimmatini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo'linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o'rganiladi. Demak, fonetika – (gr. phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo'yoqdorligi), cho'ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo'lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda



to'liqlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodiya esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutkda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressivstilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi". O'qituvchi o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni to'g'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim. Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni "bosib" qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'qituvchining ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'qituvchining o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining diqqatini ushlab turmaydi. Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o'quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi. O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasi uchun bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilg'ashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining idrok sur'ati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "yetib yurolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yorida ortiq jadal temp dars berish metodikasi qoidalari uchun ham begonadir. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to'g'ri bo'ladi. O'qituvchi nutqining rivojini ta'minlaydigan omillar orasida fonetika bilan birgalikda leksikografiya ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi nutqi har tomonlama qusurlardan holi bo'lishi uchun lug'at bazasi, ya'ni "leksika"si ham boy bo'lishi muhim. Tasavvur



qilamiz, o'quvchi darslikdagi matndan biror bir so'zning ma'nosini tushunolmay o'qituvchiga murojaat qiladi. Bu paytda o'qituvchiga "izohli lug'atlar" yordamga keladi.

"Leksikografiya" qadimgi yunonchadan olingan so'z bo'lib, "leksika" va "grafiya", "so'z" va "yozuv" so'zlaridan tashkil topgan va u lug'at tuzish, lug'atshunoslik haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi. O'qituvchining nutqini o'stirishda leksikografiya ham fonetika kabi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki nutqning asosiy sifatlari orasida nutqning boyligi ya'ni so'z boyligi ham qayd etiladi. So'z boyligi yuqori bo'lgan o'qituvchining nutqi ham juda jozibador, ta'sirchan bo'ladi va o'quvchilarning savollariga javob berishda "chaynalib" qolmaydi. O'qituvchining nutqi eng avvalo o'quvchini charchatib qo'ymasligi, vaholanki uxlab o'tirgan joyidan uyg'otib yuboradigan darajada bo'lib turli sheva elementlari, argo, jargon kabi nutq me'yorlarini buzadigan omillardan holi bo'lishi juda muhimdir. O'qituvchi o'zbek tili darsini o'tyaptimi demak shevasini yig'ishtirib qo'yib o'quvchilar bilan sof adabiy o'zbek tilida muloqotga kirishishi shart. O'qituvchi o'z nutqida bir xil so'zlar bilan cheklanib qolmasdan turli sinonim, antonim so'zlar, iboralar va maqollardan foydalansa bu o'quvchilar uchun ham yangilik bo'ladi, eshitgan yangi so'zlari asosida so'z boyligi oshadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, sinonim va antonimlarni ham o'z o'rnida qo'llash kerak. O'rnida qo'llanmagan so'zlar gapning ma'no-mazmunini buzadi.

Demak, har birimiz kelajakda o'z ishining ustasi, mohir pedagog bo'lib yetishishimiz uchun avvalo o'zimiz o'quvchilarga o'rnak bo'ladigan darajada bilimga, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishimiz lozim. Umuman, har bir o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiya, leksikografiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirova- "O'zbek tili fonetikasi" o'quv-uslubiy qo'llanma Andijon- 2016
2. S. Normamatov "Leksikografiya asoslari" "Nodirabegim" nashriyoti Toshkent-2021
3. A.Hamidov "O'qituvchi nutqi madaniyati" ma'ruzalar matni Termiz-2013
4. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent-2006